

## **YALPI HUDUDIY MAHSULOT**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-iyunida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 6 988,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 2,0 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 116,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,7 % ga yetdi.



### **Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>2019- yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da</i>
		<i>2019- yil yanvar- iyun</i>	<i>2020- yil yanvar- iyun</i>	
<b>I. YaHM</b>	<b>5 885,6</b>	<b>6 988,8</b>	<b>102,0</b>	
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 574,7	6 869,0	102,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	310,9	119,8	99,4
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>5 574,7</b>	<b>6 869,0</b>	<b>102,2</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 552,6	3 255,6	104,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 229,6	1 565,2	102,5
	sanoat	627,9	861,8	102,0
	qurilish	601,7	703,4	102,9
<b>Xizmatlar</b>	<b>1 792,5</b>	<b>2 048,2</b>	<b>99,2</b>	

		Mlrd. soʻm		2019- yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	440,9	452,7	92,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	253,2	283,8	104,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 098,4	1 311,7	100,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 032,3 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga kamaydi.



### Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va oʼsish surʼatlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi YaHMning 98,3 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 %ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,6 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 47,4 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 12,5 % dan iborat bo'lib, 1,2 % ga oshdi, qurilishniki esa 0,6 % punktga pasaydi va 10,2 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 29,9 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 2,2 % punktga kamaydi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

		<b>2019- yil</b>	<b>2020- yil</b>
<b>I. YaHM, jami</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,7	98,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,3	1,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	45,8	47,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,1	22,7
	sanoat	11,3	12,5
	qurilish	10,8	10,2
<b>Xizmatlar</b>		<b>32,1</b>	<b>29,9</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,9	6,6

		2019- yil	2020- yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,5	4,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,7	19,2





**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM  
tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 104,1 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi - 47,4 %), sanoatda - 102,0 % (12,5 %) va qurilishda 102,9 % (10,2 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida hajmning kamayishi kuzatildi va 99,2 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi - 29,9 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (92,1 %) kamayish, tashish va saqlash, axborot va aloqa (104,7 %) hamda boshqa xizmat tarmoqlarida (100,8 %) o'sish holatlari kuzatildi.




**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i YaHMning mos ravishda 1,8 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida - 1,3 f.p.), sanoat 0,2 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida - 0,1 f.p.), qurilish 0,3 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida - 3,8 f.p.) ga o'sishiga hissa qo'shdi. Xizmatlar sohasi - 0,3 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida 1,9 f.p. ijobjiy hissa qo'shgan) salbiy hissa qo'shdi.



## 2020- yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 116,4 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda - 134,6 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida - 122,5 % qayd etildi.



## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

